XO'JALIK YURITUVCHI BIZNES SUBYEKTLARI BIZNES MUHITI RIVOJLANISHIGA DAVLATNING TA'SIRI..	1072
Hazratov Abror Panjiyevich, Muratkulov Xumoyun Dilshodovich	
YASHIL XIZMATLAR SOHASINING MOHIYATI, IJTIMOY-IQTISODIY FUNKSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI	1077
Y.M. Xalikov	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI	1085
Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	1091
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	1098
Дониерова Фотимабону Алишер қизи	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODELI (DRP-KREDIT MODELI)...	1109
Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UN DAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1124
Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
Эгамова Махфурат Эсановна	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
Shohruzbek Ruziyev	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	1156
Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
Kodirova Samira Kamol qizi	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	1169
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIK LARINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	1175
Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI	1181
Kazakova Zulayho, Saida'zamova Nilufar, Isroilov Shohruh	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	1192
Шермухамедов Акмал Комилжонович	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
Umarov Xasan Sunnatullaevich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII	1210
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	1221
Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI	1233
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
Zararli dasturiiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1244
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	



O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti 1-bosqich tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

(+998 90 811 71 45) No'monjonovaM@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston korxonalarida investitsiya faoliyatining zamonaviy holati, investitsion muhitning institutsional asoslari hamda investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sanoat korxonalarida investitsiya faolligiga ta'sir qiluvchi omillar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari va davlat tomonidan yaratilayotgan qulay investitsion muhit masalalari o'rganilgan. Shuningdek, investitsiya samaradorligini oshirishning innovatsion yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion faoliyat, korxonalar, investitsion muhit, innovatsion rivojlanish, sanoat korxonalar, kapital qo'yilmalar, iqtisodiy o'sish.

Abstract. This scientific article analyzes the current state of investment activity in enterprises of Uzbekistan, the institutional foundations of the investment environment, and the prospects for the development of investment processes. During the research, factors influencing investment activity in industrial enterprises, mechanisms for attracting foreign investments, and issues related to the creation of a favorable investment climate by the state were studied. In addition, scientific proposals and recommendations were developed regarding innovative directions for improving investment efficiency.

Keywords: investment, investment activity, enterprise, investment environment, innovative development, industrial enterprises, capital investments, economic growth.

Аннотация. В данной научной статье проанализированы современное состояние инвестиционной деятельности предприятий Узбекистана, институциональные основы инвестиционной среды, а также перспективы развития инвестиционных процессов. В ходе исследования изучены факторы, влияющие на инвестиционную активность промышленных предприятий, механизмы привлечения иностранных инвестиций и вопросы формирования благоприятного инвестиционного климата со стороны государства. Кроме того, разработаны научные предложения и рекомендации по инновационным направлениям повышения эффективности инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная деятельность, предприятие, инвестиционная среда, инновационное развитие, промышленные предприятия, капитальные вложения, экономический рост.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, kuchayib borayotgan raqobat muhiti hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tish tendensiyalari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda investitsiya faoliyatining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishga qaratilgan keng ko'lami iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, investitsiya siyosatini liberallashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda hududlarda qulay biznes muhitini yaratish borasida muhim institutsional mexanizmlar shakllantirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida: "Mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni keng jalb etish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektor ulushini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning eng muhim shartidir", deb ta'kidlagan.¹

Mazkur yondashuv investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida e'tirof etayotganligini va

1 <https://president.uz/oz/lists/view/7778>



investitsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, bugungi kunda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya etish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish investitsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga aylanmoqda. Bu esa korxonalarda investitsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya samaradorligini oshirish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ortib bormoqda, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati kengaymoqda hamda yangi investitsion loyihalar amalga oshirilmog'da. Natijada sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari oshib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi mustahkamlanmoqda.

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston korxonalarida investitsiya faoliyatining zamonaviy holati, investitsion muhitning asosiy tendensiyalari hamda investitsiya ...

Faoliyatini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya faoliyatining iqtisodiy o'sishdagi o'rni, investitsion muhit jozibadorligini oshirish hamda investitsiyalar samaradorligini ta'minlash masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallasuv, raqamli transformatsiya va innovatsion iqtisodiyot sharoitida investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish masalalariga xalqaro tashkilotlar va iqtisodchi olimlar tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon banki mutaxassislari investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lish bilan birga, ularning samaradorligi institutsional muhit sifati, davlat boshqaruvi samaradorligi va biznes yuritish sharoitlariga ham bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, investitsion muhitning barqarorligi hamda investorlar huquqlarining ishonchli himoya qilinishi investitsiyalar hajmini ko'paytirishning asosiy omillaridan biridir.²

UNCTAD ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya oqimlarini jalb qilishda raqamlashtirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va investitsion siyosatning shaffofligi muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, investitsion muhitning ochiqligi va institutsional islohotlar xorijiy investitsiyalar oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

OECD tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalar va investitsiyalar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi asoslangan. Xususan, innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan investitsiyalar korxonalarining mehnat unumdorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlangan.³

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) ekspertlari investitsiya faoliyatining rivojlanishini makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy bozorlarning rivojlanganligi va xususiy sektor faolligi bilan bog'laydilar. Ularning fikricha, investitsiyalar hajmining o'sishi iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishi va yangi ish o'rinlari yaratilishining muhim manbasi hisoblanadi.⁴

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Vahobov investitsion siyosatning institutsional asoslari va investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tadqiq etib, investitsiya faoliyatining samaradorligi investitsion muhitning jozibadorligi hamda moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasiga bog'liqligini asoslab bergan.⁵ Shuningdek, Q. X. Abdurahmonov investitsiyalarni iqtisodiy modernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlarning muhim omili sifatida baholab, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashini ta'kidlaydi.⁶

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rin egallamoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida investitsion muhit jozibadorligini oshirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va xususiy investitsiyalar ulushini ko'paytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.⁷

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiya faoliyatining nazariy asoslari va investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatining zamonaviy holatini baholash, investitsiya samaradorligini oshirish va raqamli iqtisodiyot

2 World Bank. *Global Economic Prospects 2025*. Washington DC, 2025. – pp. 84–96.

3 OECD. *The Digital Transformation of SMEs 2024*. Paris, 2024. – pp. 54–68.

4 IMF. *World Economic Outlook 2024: Policy Pivot, Rising Threats*. Washington DC, 2024. – pp. 41–57.

5 Vahobov A., Xajibakiyev Sh., Muminov N. *Xorijiy investitsiyalar*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 124–138-betlar

6 Abdurahmonov Q.X. *Milliy iqtisodiyot*. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2023. – 301–315-betlar.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida



sharoitida investitsion boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu yo‘nalishlarni chuqur tahlil qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston korxonalarida investitsiya faoliyatining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari tadqiq etishda iqtisodiy tahlilning zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida investitsiya faoliyatining nazariy asoslarini o‘rganish, investitsion jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Tadqiqotning metodologik asosini investitsiya faoliyati va investitsion boshqaruvga oid xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etdi. Jumladan, John Maynard Keynes investitsiyalarni iqtisodiy o‘rnatishning asosiy omili sifatida baholab, investitsion faollikning makroiqtisodiy barqarorlikka ta‘sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan.⁸

Tadqiqot davomida investitsion risklarni baholash va investitsiya samaradorligini aniqlashda William F. Sharpening investitsion portfel nazariyasiga oid ilmiy yondashuvlaridan foydalanildi.⁹ Mahalliy iqtisodchi olimlardan Q. X. Abdurahmonov hamda A. Vahobovlarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish, investitsion siyosat va investitsiyalarni moliyalashtirishga oid ilmiy qarashlari tadqiqotning nazariy asoslarini boyitdi.¹⁰

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- ilmiy abstraksiya usuli – investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda;
- qiyosiy tahlil usuli – O‘zbekiston va xorijiy davlatlar investitsiya tajribasini solishtirishda;
- statistik tahlil usuli – investitsiyalar hajmi va dinamikasini baholashda;
- tizimli tahlil usuli – investitsiya faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlashda;
- iqtisodiy-mantiqiy tahlil usuli – ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda;
- dinamik tahlil usuli – investitsion ko‘rsatkichlarning yillar kesimidagi o‘zgarishini o‘rganishda qo‘llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va

Savdo vazirligi hisobotlari hamda xalqaro tashkilotlar – The World Bank va United Nations Conference on Trade and Development hisobotlari tashkil etdi.¹¹

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot mavzusini kompleks o‘rganish, investitsiya faoliyatining zamonaviy holatini baholash hamda korxonalarda investitsiya samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini rivojlantirish va iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida korxonalarining investitsion faolligi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida modernizatsiya jarayonlarining jadallashuvi investitsiya resurslariga bo‘lgan talabni kuchaytirdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi yildan yilga o‘sib bormoqda. Xususan, sanoat, energetika, transport va qurilish tarmoqlarida yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa korxonalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va eksport salohiyatini oshirish imkonini bermoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi. 2020–2024-yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida barqaror o‘rnatish kuzatildi. Ayniqsa, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi ortib borayotgani investitsion muhitning yaxshilanayotganidan dalolat beradi(1- jadval).

8 John Maynard Keynes. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936. – pp. 120–128

9 William F. Sharpe. *Investments*. – New Jersey: Prentice Hall, 2014. – pp. 101–119.

10 A. Vahobov. *Investitsiyalarni moliyalashtirish va kreditlash*. – Toshkent: Moliya, 2021. – 121–137-betlar.

11 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. “O‘zbekistonda investitsiya faoliyati”. Statistik to‘plam. – Toshkent, 2024. – 35–49-betlar.
The World Bank. *World Development Report 2024*. – Washington DC, 2024. – pp. 71–79.



1-jadval

O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi

Yillar	Investitsiyalar hajmi (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)
2020	202,0	103,1
2021	239,5	105,2
2022	269,9	106,5
2023	332,1	108,3
2024	390,4	109,1

Jadval ma'lumotlari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, investitsiyalar hajmining o'sishi sanoat korxonalarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Investitsion faollikning oshishiga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- investitsion qonunchilikning liberallasuvi;
- xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlarining kengaytirilishi;
- erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining rivojlanishi;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy qilinishi;
- bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan investitsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning "asosiy drayveri" sifatida baholanishi ham investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bermoqda.¹²

Sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatining tahlili. Tahlillar natijasida sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatining asosiy qismi quyidagi yo'nalishlarga yo'naltirilayotgani aniqlandi:

- texnologik modernizatsiya;
- energiya tejamkor uskunalarni joriy etish;
- import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish;
- eksportbop mahsulotlar hajmini oshirish;
- raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilish.

Ayniqsa, elektrotexnika, kimyo, qurilish materiallari va to'qimachilik sanoatida investitsion faollik yuqori sur'atlarda o'smoqda. Bu holat korxonalarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan:

- uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari cheklanganligi;
- ayrim hududlarda infratuzilma yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- investitsion risklarning yuqoriligi;
- innovatsion texnologiyalar ulushining nisbatan pastligi.

Mazkur muammolar korxonalarda investitsiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar korxonalar investitsion faolligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Sanoat korxonalarida investitsiyalar asosan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirilmoqda.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi iqtisodiyotning xalqaro investitsion jozibadorligi ortayotganidan dalolat beradi.

Investitsiya samaradorligini oshirish uchun innovatsion boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

Korxonalarda investitsion risklarni baholash va strategik investitsion rejalashtirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar asosida sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va

12 Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 29–31-betlar.

investitsion boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi.

Muhokama. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda investitsiya faoliyatining faollashuvi iqtisodiyotning, ayniqsa sanoat korxonalarining rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining yildan yilga oshib borayotgani mamlakatda investitsion muhitning yaxshilanayotganini hamda iqtisodiy islohotlarning amaliy natija berayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida texnologik modernizatsiya jarayonlarining kuchayishi sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mening fikrimcha, investitsiyalar hajmining o'sishi o'z-o'zidan yuqori iqtisodiy samaradorlikni anglatmaydi. Eng muhim masala — investitsiyalarning qaysi sohalarga va qanday samaradorlik bilan yo'naltirilayotganidir. Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, bugungi kunda investitsiyalarning asosiy qismi sanoat, energetika va infratuzilma tarmoqlariga yo'naltirilmoqda. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun muhim omil hisoblanadi. Chunki aynan sanoat korxonalarida iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadi va eksport salohiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, tahlillar ayrim muammolar ham mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, ayrim korxonalarda investitsion mablag'lardan foydalanish samaradorligi yetarli darajada yuqori emas. Buning asosiy sabablari sifatida strategik boshqaruv tizimining sustligi, investitsion risklarni baholash mexanizmlarining mukammal emasligi hamda innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy qilinmaganligini ko'rsatish mumkin.

Ayniqsa, hududlar kesimida investitsiya faolligi o'rtasidagi tafovutlar sezilarli ekanligi kuzatilmoqda. Poytaxt va yirik sanoat hududlarida investitsiya loyihalari faol amalga oshirilayotgan bo'lsa, ayrim hududlarda infratuzilmaning rivojlanmaganligi investitsion jozibadorlikni pasaytirmoqda. Bu esa hududiy iqtisodiy nomutanosiblikni yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib aytish mumkinki, kelgusida investitsiya samaradorligini oshirish uchun nafaqat investitsiyalar hajmini ko'paytirish, balki ularning sifat ko'rsatkichlariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Xususan:

- innovatsion va yuqori texnologiyali loyihalarni qo'llab-quvvatlash;
- korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- investitsion risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;
- mahalliy korxonalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish;
- hududlarda investitsion infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda faqat moliyaviy resurs sifatida emas, balki yangi texnologiyalar, zamonaviy menejment tajribasi va innovatsion yondashuvlarni olib kiruvchi omil sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi global iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlik asosan innovatsion rivojlanish orqali ta'minlanadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini ko'rsatmoqda. Biroq ushbu salohiyatdan samarali foydalanish investitsion boshqaruv tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish va investitsiyalarning real iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot davomida O'zbekiston korxonalarida investitsiya faoliyatining zamonaviy holati, investitsion muhitning rivojlanish tendensiyalari hamda investitsiya samaradorligini oshirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar investitsion faollikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarida modernizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi va yangi investitsion loyihalarning amalga oshirilishi iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda.

Tahlillar asosida investitsiyalar asosan sanoat, energetika, qurilish va infratuzilma tarmoqlariga yo'naltirilayotgani aniqlandi. Bu esa ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda investitsion mablag'lardan foydalanish samaradorligi yetarli darajada yuqori emasligi kuzatildi.

Tadqiqot davomida investitsiya faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy muammolar sifatida uzoq muddatli moliyaviy resurslarning cheklanganligi, investitsion risklarning yuqoriligi, hududlar o'rtasidagi investitsion nomutanosiblik hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi aniqlandi.

Mening fikrimcha, kelgusida O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda asosiy e'tibor investitsiyalar hajmini oshirishdan ko'ra, ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga qaratilishi lozim. Chunki investitsiyalar faqat ishlab chiqarishga emas, balki innovatsion rivojlanish, yuqori texnologiyalar va inson kapitaliga yo'naltirilgandagina uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlay oladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Korxonalarda investitsion boshqaruv tizimini takomillashtirish zarur. Bunda strategik rejalashtirish va



investitsion risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion va yuqori texnologiyali loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish lozim. Bu sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Hududlarda investitsion infratuzilmani rivojlantirish kerak. Ayniqsa, transport, logistika va energetika infratuzilmasini yaxshilash hududiy investitsion faollikni oshiradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur. Investorlar uchun huquqiy kafolatlar va soliq imtiyozlarini kengaytirish investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish lozim. Raqamli boshqaruv tizimlari investitsiya samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mahalliy korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarur. Bu investitsion loyihalarni ichki moliyaviy resurslar hisobidan amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy va institutsional asoslar shakllanmoqda. Kelgusida investitsion boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash hamda investitsiya samaradorligini oshirish orqali sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. World Bank. Global Economic Prospects 2025. – Washington DC: World Bank Publications, 2025.
3. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Economy. – Geneva: United Nations Publications, 2024.
4. OECD. The Digital Transformation of SMEs 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.
5. IMF. World Economic Outlook 2024: Policy Pivot, Rising Threats. – Washington DC: International Monetary Fund, 2024.
6. Vahobov A., Xajibakiyev Sh., Muminov N. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
7. Abdurahmonov Q. X. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
9. Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
10. Sharpe W. F. Investments. – New Jersey: Prentice Hall, 2014.
11. Vahobov A. Investitsiyalarni moliyalashtirish va kreditlash. – Toshkent: Moliya, 2021.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekistonda investitsiya faoliyati: Statistik to'plam. – Toshkent, 2024.
13. World Bank. World Development Report 2024. – Washington DC: World Bank Publications, 2024.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100